


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**NEW "UZBEKI-TURKISH DICTIONARY": ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS*****Khayrulla Khudoyorovich Hamidov****DSc, professor**TSUOS**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: lexicography, dictionary, word, term, written and oral translation, proverb and set phrase, bilingual dictionary.

Received: 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24

Abstract: This article is about the bilingual “Uzbek-Turkish Dictionary” (“Özbek Türkçesi-Türkiye Türkçesi. Sözlük”), which was recently published by the Nobel Publishing House (Republic of Turkey) and contains more than forty thousand words, terms and expressions, which is intended to a certain extent, satisfy the needs of users in the process of studying the Turkish language in our country and the Uzbek language in Turkey, written and oral translation from Uzbek into Turkish and from Turkish into Uzbek, and the article also emphasizes that conducting scientific research on such dictionaries in the future will make a significant contribution to the development of lexicography. The article also objectively shows the achievements of the dictionary and the shortcomings made during compilation, which need to be taken into account in the future, in new editions of this dictionary, constructive suggestions and recommendations are given.

YANGI “O‘ZBEKCHA-TURKCHA LUG‘AT”: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR***Xayrulla Xudoyorovich Hamidov****professori v.b. DSc**TDSHU**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: leksikografiya, lug‘at, so‘z, termin, yozma va og‘zaki tarjima, maqol va ibora, ikki tilli lug‘at.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yaqinda “Nobel” nashriyotida (Turkiya Respublikasi) nashr etilgan, qirq mingdan ortiq so‘z, termin va iborani o‘z ichiga olgan “O‘zbekcha-turkcha lug‘at” (“Özbek Türkçesi-Türkiye

Türkçesi. Sözlük”), mazkur lug‘atning mamlakatimizda turk tilining, Turkiyada o‘zbek tilining o‘rganilishi, o‘zbektilidanturk tiligava turk tilidan o‘zbek tiliga yozma va og‘zaki tarjimoni amalga oshirishda o‘n yillardan buyon sezilib kelayotgan ikki tilli lug‘atga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada qondira olayotgani, uning sifati va saviyasi xususida so‘z yuritilib, istiqbolda bunday lug‘atlar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi leksikografiya taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shishi ta’kidlanib, uning yutuq va kamchiliklarini xolisona ko‘rsatish hamda lug‘atning kelgusida chiqadigan yangi nashrlarida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni hisobga olish lozimligi aytilib, konstruktiv taklif va tavsiyalar beriladi.

НОВЫЙ «УЗБЕКСКО-ТУРЕЦКИЙ СЛОВАРЬ»: ДОСТИЖЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ

Хайрулла Худоёрович Хамидов

Д.ф.н. профессор

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лексикография, словарь, слово, термин, письменный и устный перевод, пословица и устойчивое словосочетание, двуязычный словарь.

Аннотация: В данной статье речь идет о двуязычном «Узбекско-турецком словаре» (“Özbek Türkçesi-Türkiye Türkçesi. Sözlük”), который был издан недавно издательством «Нобель» (Турецкая Республика) и содержит более сорока тысяч слов, терминов и выражений, который призван в определенной степени удовлетворить потребность пользователей в процессе изучения турецкого языка в нашей стране и узбекского языка в Турции, письменного и устного перевода с узбекского на турецкий и с турецкого на узбекский язык, а также в статье подчеркивается, что проведение научных исследований по подобным словарям в будущем внесет значительный вклад в развитие лексикографии. В статье также объективно показаны достижения словаря и недостатки, допущенные при составлении, которые нужно учесть в будущем, в новых изданиях данного словаря, даны конструктивные предложения и рекомендации.

KIRISH

Til – inson tafakkurining shaffof ko‘zgidir. Bunday bebaho xazinani nafaqat asrab-avaylash, balki to‘xtovsiz takomillashtirib borish davlat, undan ham ziyoda jamiyatning mas’uliyatli vazifasi hisoblanadi. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-oktyabrda o‘zbek tilining davlat tili sifatida qabul qilingan kun munosabati bilan matbuotda e’lon qilingan O‘zbekiston xalqiga tabrigida inson uchun ona Vatan, ota-ona qanchalik aziz bo‘lsa, uning ma’naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik mo‘tabar ekanligi alohida ta’kidlangan edi [1, 271].

Xalqning ma’naviy qadriyatlari uning adabiy tili, boy lug‘atida o‘za ksini topadi. Shu ma’noda lug‘at tilda mavjud so‘zlar jamlanmasi o‘laroq uning taraqqiyotini belgilab, ana shu taraqqiyot yo‘li haqida ham ma’lumot beradi. Bu jihatdan lug‘atlar tarixning, xalq turmush tarzi va jamiyat hayotining tiniq ko‘zgusi hisoblanadi.

2006-yil Toshkentda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga yozilgan so‘zboshida shunday deyiladi: “Tilning rivojlanish jarayonida uning lug‘at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalariga qaraganda tez, sezilarli, jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Buning sabablari ma’lum... Bu o‘zgarishlar leksikaning faqat mikdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o‘zgarishlar yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi va ma’lum lug‘aviy birliklarning yo‘q bo‘lishi (iste’moldan chiqishi), so‘zlarning yangi ma’nolar kasb etishi va ayrim ma’nolarining yo‘qolishi kabi hodisalardan iborat bo‘ladi. Bu jarayonda lug‘aviy birliklarning adabiy me’yor (norma)ga bo‘lgan munosabatida, qo‘llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o‘zgarishlar yuz beradi”[2,1-J.B.5].

ASOSIY QISM

Har qanday lug‘at haqida so‘z ketganda, xususan so‘z turkiy tillar bilan bog‘liq lug‘atlar haqida borganda, turkiy leksikografiyaning tarixi Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yaratilgan, nafaqat so‘zlar va ularning ma’nolari tavsiflangan, balki turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma’lumotlarni ham qamrab olgan mashhur “Devonu lug‘otit turk” asari bilan boshlangani, bundan tashqari, ushbu qomusiy lug‘at dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha), izohli lug‘at ekaniga alohida urg‘u berish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi arafasida (80-yillarning oxirlari) va mustaqillikyillarida mamlakatimizning til siyosatida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilindi, qonun moddalarida qayd etilgan yo‘l-yo‘riq va vazifalar o‘zbek tili taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Til taraqqiyoti jarayonida uning o‘z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishi qonuni to‘la, erkin amal qila boshladi. Bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan, respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o‘zgarishlar, rivojlangan juda ko‘p mamlakatlar bilan aloqalarning tobora

kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida o‘zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi” [2,1-J.B.6]. Bu davrda barcha sohalarda bo‘lgani kabi leksikografiya sohasida ham katta ishlar qilindi, turli xil lug‘atlar nashr etildi.

Ikki tilli lug‘atlarga kelinsa, bu borada ham salmoqli ishlar qilingan. Ammo o‘zbekcha-turkcha va turkcha-o‘zbekcha mukammal lug‘atlar haqida gap ketganda, ahvol maqtanadigan darajada emasligi namoyon bo‘ladi. So‘nggi 30 yil ichida ko‘pchilik soha mutaxassislarning ish quroliga aylangan ruscha-turkcha va turkcha-ruscha lug‘atga yetadigan lug‘atlar hanuz yarata olinmadi. Yaratilganlari esa lug‘atlar juda kichik hajmda (3 ming, 5 ming, nari borsa, 5-8 ming so‘z va birikmadan iborat) bo‘lib, ular mavjud ehtiyojni qondira olmayapti. Zero har qanday tilning eng mukammal akademik lug‘ati (izohli, ikki tilli lug‘atlar) 45-50 mingdan 80 mingga qadar so‘z va so‘z birikmalarini o‘z ichiga olishini mutaxassislar yaxshi bilishadi.

Turkshunoslik sohasi mutaxassislari, tarjimonlar, jurnalistlarning ko‘pchiligi hanuz o‘sha “Katta ruscha-turkchalug‘at”[3] va “Katta turkcha-ruscha lug‘at” [4]dan foydalanib kelishadi. Bu esa o‘zbek, rus va turk tillarini bir xil darajada bilmaydigan foydalanuvchilar ishini 2 barobarga ko‘paytirayotganligi sir emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, 2023-yilda “Nobel” nashriyotida (Turkiya Respublikasi) nashr etilgan “O‘zbekcha-turkcha lug‘at” (“Özbek Türkçesi-Türkiye Türkçesi. Sözlük”) [5] mavjud bo‘shliqni to‘ldiradi va o‘zbek tilidan turk tiliga tarjima qiluvchi turkshunos mutaxassislar, ijodkorlar, muallimlar va talabalarning mushkullarini oson qiladi, deb o‘ylaymiz.

Ushbu lug‘atda hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng iste’molda bo‘lgan, hatto tilimizning ayrim shevalarida qo‘llanib kelinayotgan so‘z va so‘z birikmalarini o‘z ichiga olgan. Ushbu lug‘at tuzgan mutaxassislardan biri – Hikmet Korashning ta’kidlashicha, lug‘at 40 mingga yaqin so‘z, 5 mingga yaqin ibora va maqolni qamrab olgan. Bular orasida fan, texnika, san’at va madaniyat sohalariga oid terminlar, ba’zi tarixiy va eskirgan atamalar ham bor (albatta ushbu so‘zlikni 80 mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini o‘z ichiga olgan, har bir so‘z yoki ibora XX asr o‘zbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati bilan qiyoslash to‘g‘ri bo‘lmaydi).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turk tilshunoslari, soha mutaxassislari tomonidan bir necha yil davomida katta kuch-g‘ayrat, chidam va fidoyilik bilan tayyorlangan mazkur lug‘atni juda o‘rnida va vaqtida nashr etilgan, hamma uchun katta orzu bo‘lgan “Katta o‘zbekcha-turkcha” va “Katta turkcha-o‘zbekcha lug‘at”lar yaratilgunga qadar foydali manba, tilshunos va tarjimon mutaxassislarning “og‘irini yengil qila oladigan” so‘zlik bo‘ladi, deb umid qilamiz. Zero, har qanda lug‘at yaratilgandan keyin o‘tadigan vaqt mobaynida til va uning leksikasida yuz bergan o‘zgarishlar e’tiborga olinib, uning yangi nashrini yaratishga ehtiyoj tug‘iladi. Bunga o‘zbek

tilining 1981 va 2006-yildagi izohli lug‘ati va har 10 yilda yangilanib nashr qilinadigan “Türkçe Sözlük”[7] misol bo‘la oladi.

1. Shu o‘rinda “O‘zbekcha-turkcha lug‘at”dagi ko‘pgina so‘zlarni izohlashda 1981-yil “Russkiy yazık” nashriyotida chopetilgan 2 jildli [6] va 2006-yilda “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotida chopetilgan 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”[2]dagi izohlarga tayanilganini e‘tirof etish lozim.

2. Lug‘atga yozilgan so‘zboshida uning uch yirik tilshunos mutaxassis tomonidan yetti yil davomida tayyorlangani, ko‘p marotaba tekshirilgani, shu bilan birga, inson doimo bir xil ish bilan shug‘ullansa, ayrim narsalarning ko‘zdan qochishi, ya‘ni xatolarga yo‘l qo‘yilishi, ba‘zi narsalarning e‘tibordan chetda qolishi, kamchiliklarning ko‘rinmas holga kelishitabiiy ekanligi alohida ta‘kidlanib, lug‘atdan foydalanuvchilardan oldindan uzr so‘raladi. Darhaqiqat, lug‘at foydalanish uchun juda qulay, hammabop tuzilgan, biroq sinchiklab qaraganda ayrim juz‘iy kamchiliklar ham uchraydiki, bu xususda quyida so‘z yuritiladi.

3. Umumiy maqsadli ushbu lug‘atning ayrim o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘tish maqsadga muvofiq:

– “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ta‘kidlangani kabi, “O‘zbekcha-turkcha lug‘at”da ham bir umumiy lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan so‘z shakllaridan asosiysini berish, qolganlarining esa, ma‘noda muayyan siljish, o‘zgarish bo‘lmagan hollarda berilmasligi; tarixiy, etnografik terminlarga yangicha yondashuv; o‘zbekcha yoki umumturkiy bo‘lmagan so‘z va terminlarga (arabcha, forscha, baynalmilal, yevropacha va boshqa tillarga mansub so‘zlarga) imkon qadar ma‘lumot berib o‘tish ham lug‘atning o‘ziga xosliklaridan hisoblanadi.

– Lug‘atdagi ba‘zi o‘zbekcha so‘zlar va ularning izohlari bugungi kunda ko‘pchilikka notanish, hatto g‘alati tuyulishi mumkin. Ammo bu so‘zlar jamiyat hayotining bir qismi ekanligi, ular badiiy asarlarda uchrashini unutmaslik kerak;

– Sovet davrida o‘zbek tiliga kirib kelgan va o‘zlashib qolgan so‘z va tushunchalar, realiyalar (feodal, burjua, kolxoz kabi terminlar) saqlanib qolgan va bunday so‘zlarning tarjimasini berishda alohida yondashuv darkor.

– eng oxirgi izohli lug‘atlarda ham o‘zbek tiliga g‘arb tillaridan kirib o‘zlashgan so‘zlar juda ko‘p. Ular, ayniqsa, ilmiy-texnikaviy atamalar, aksariyati sobiq sho‘ro davrida lug‘atga kirgan va ulardan bugungi kunda ham keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Lug‘at mualliflari unda e‘tiborni tortadigan bir jihat – o‘zbek yozuvidagi unilarninghozirgi turk tilidagi unli tovushlarga ba‘zan mos kelmasligi, o‘zbekcha kirill va lotin alifbolarida unililar farqli ekanligi, a, o kabi tovushlarboshqa turkiy tildarida mavjud emasligi, o tovushi o‘zbek yozuviga fors tili orqali kirib kelgan yot element ekanligi, uning turkiy so‘zlarda qo‘llanilishi

o‘zbek adabiy tilini boshqa turkiy yozma tillardan ajratib qo‘yayotganligi, boshqa turkiy tillarda so‘zlashuvchilar tomonidan tushunilishi qiyinlashganligini qayd etadilar.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, XX asrda ayrim so‘zlarimizning ma’nolari o‘zgarib, torayib, kengayib bordi, aloqada bo‘lingan qo‘shni til va madaniyatlar ta’sir etdi, tilga yangi so‘zlar kirib keldi, yangi idioma va atamalar shakllandi.

Lug‘at tuzuvchilari XX asrda turk va o‘zbek tillari orasida aloqalar uzilishi tufayli tilda o‘zgarishlar yuz bergani, turkchanning o‘zbekchadan uzoqlashgani, shu sababdan tayyorlangan lug‘atlardagi aksariyat yozuvlarning turk tilida aniq ekvivalentlarini topish juda qiyin kechganligini ta’kidlaydilar.

Arab va fors tillaridan o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan so‘zlar qanday qo‘llanilayotgan bo‘lsa, umumiy yo‘nalish hisobga olingan holda, ma’nolari esa o‘zbek adabiy tili lug‘atlari hisobga olingan holda berilgan.

Ta’kidlash kerakki, ushbu lug‘at o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, ko‘proq hozirgi o‘zbek tilida keng iste’molda bo‘lgan so‘zlarni to‘plash va turkcha muqobillari bilan berishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ygan, “Chunki o‘zbek tili XX asrning 2-yarmida, xususan, keyingi o‘n yilda yangi-yangi so‘zlar, so‘z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o‘zgardi. Unda yangi me’yor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bormoqda. Bunday o‘zgarishlar tilning fonetik tarkibi va alifbosida ham, imlo va talaffuzida ham, morfologik va leksik-semantik tuzilmasida ham, stilistikasi va grammatik qurilishida ham ozmi-ko‘pmi o‘z aksini topdi. Ayniqsa, o‘zbek tili leksikasida katga o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘zbekistonda sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan, texnika va madaniyatning beqiyos taraqqiyoti, mamlakatimizda yangi iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘zbek tili lug‘at tarkibida juda ko‘p yangi so‘zlar va terminlar yuzaga keldi. Ko‘pgina so‘zlarning ma’nosi o‘zgardi, kengaydi, ayrim so‘zlarning ma’nosi yanada aniqlashdi, o‘zaro farqlandi. Bularning barchasi lug‘atda o‘z ifodasini topgan” [2,4]. Darhaqiqat, xuddi shu narsa “O‘zbekcha-turkcha” lug‘atni tuzishda ham inobatga olingan.

Yangi lug‘atni ilk ko‘zdan kechirish sirasida ayrim juz’iy kamchiliklar ko‘zga tashlanadi va ularning o‘z vaqtida tuzatilishi keyingi nashrlarning yuqori saviyada chiqishini ta’minlaydi, deb o‘ylaymiz. Bular quyidagilar:

Lug‘atda o‘zbekcha so‘zlar ham kirill alifbosida, ham lotin alifbosida berilgan (**МУҲЛЯТ/МУҲЛАТ**[Ar.] is. Mühlet, süre). Bu yerda so‘zning kirill yozuvida berilishi, bizning nazarimizda, maqsadga muvofiq emas.

Lug‘atda o‘zbektilining izohli lug‘atida mavjud bo‘lmagan fe’l shakllari ham berilib, izohlanadi (**ИЛГАРИЛАСHTИРМОҚ /ILGARILASHTIRMOQ** İlerletilmiş olmak: ileri hâle getirilmek).

Juda ko‘p o‘zbekcha so‘zlarning aniq turkcha tarjimasini berilmasdan, faqat uning ma‘nosi izohlab ketiladi: Masalan: **ГУППАКЛАШМОҚ/ GUPPAKLASHMOQ**. Yig‘in hâlinde birbirini çekiştirerek, ezerek oynaşmak (çocuklar hak.)

Ba‘zi so‘zlarning tarjimasini emas ma‘nosi izohlanib, izohda ham turklarga notanish bo‘lgan, izoh talab so‘z beriladi. Masalan: **ГУППИ/ GUPPI** is. Kalin pamuklu çapan (bu yerda **çapan**(chopon) so‘zi turklarga tanish emas).

Lug‘atda imlo xatolari uchraydi. Masalan, o‘zbekcha izohli lug‘atdan olingan **ИЛИ-МИЛИК** ayn. iliq-miliq murakkab so‘z shakli lug‘atda **ИЛИ-МИЛИК / ILI-MILIK** shaklida xato berilgan (ya‘ni so‘z oxirida “к” emas “қ” bo‘lishi kerak edi)

Lug‘atda texnik xatoliklarga ham yo‘l qo‘yilgan, masalan, “Иккинчидан” so‘zi “Иккичидан” deb xato yozilganki, lug‘atlarda bunday xatoliklarga yo‘l qo‘yish mumkin emas.

Ayrim so‘zlarning tarjimasini lug‘atda noto‘g‘ri berilgan. Masalan, “iskana” so‘zining tarjimasini quyidagicha: **ИСКАНА / ISKANA**[Far.] is. **Matkap**. Qiyoslanadigan bo‘lsa, o‘zbekcha “yog‘och, taxtani o‘yish uchun qo‘llanadigan, uchi yapaloq o‘tkir po‘lat asbob” ma‘nosidagi “iskana” so‘zi ruschada “**долото**” bo‘ladi va bu so‘z “Katta ruscha-turkcha lug‘at”da “**долото – оута kalemi**” deb berilgan. “Katta turkcha-ruscha lug‘at”da esa “**Matkap – сверло**” deb to‘g‘ri berilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi “bo‘sh joy, bo‘shliq; teshik; in, uya” ma‘nosidagi **КОВАК** so‘zi bu lug‘atda **КАВАК/КАВАК** shaklida tarjimasini bilan berilgan va izohlangan. Demak lug‘at tuzuvchilari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning kirish qismidagi quyidagi so‘zlarga e‘tibor bermaganlar: “Lug‘atga so‘z tanlash haqidagi qisqa tarzda aytilganlardan ma‘lum bo‘ldiki, bularga amal qilish bilan shu masalada (lug‘aviy birlik, uning variantlari va sh. k. jihatdan) adabiy me‘yor (norma) belgilandi va bu ishga alohida e‘tibor qaratildi. Natijada shu vaqtga qadar davom etib kelayotgan ba‘zi nuqson va xatoliklar tuzatildi. Mas, 1976-yilda “Fan” nashriyoti tomonidan chop etilgan "O‘zbek tilining imlo lug‘ati"da kavlamoq, kovakso‘zlari xuddi shunday berilgan. Ikki jildli izohli lug‘atda esa kavak, *kovlamoq* shaklida berilgan. Vaholonki, bu ikki so‘zdagi “K” harfidan keyingi harf bir xil bo‘lishi, aniqrog‘i “O” yozilishi kerak. Chunki ularning ikkalasi ham aslida kov so‘zidan yasalgan: kov+ak, kov+lamoq (Lug‘atda ular xuddi shunday shaklda berildi)”[2,8].

Yuqorida tuzuvchilar tanlagan printsiptga asoslanilsa, o‘zbekcha so‘z kirill va lotin yozuvlarida bir xilda berilishi (**БА/ВА, БААДАБ/ВЕАДАВ, БААЙНИ/ВААҮНИ, БАБАҚ/ВАВАҚ**) kerak edi. Ammo bu so‘zlar quyidagicha berilgan va buning orqasidan so‘zlar xato izohlangan:

БА/ВЕ (a kısa veya uzun iki şekilde) *ünl.*
Koyun, keçi gibi hayvanlara seslenme ünlemi.

БА/ВЕ [*Far.*] *ek. db.* Bazı isimlerin önüne gelerek onları sıfatlaştıran, onlara isimlere eklenen *-li/-li* ekinin kattığı anlamı katan ön ek.

БААДАБ/ВЕАДАБ *sf.* Edepsiz.

БААЙНИ/ВЕАЙНИ *zf.* Tıpkı, aynıyla, farksız olarak.

БАБАҚ/ВЕВЕҚ *is. zool.* Bir çeşit tavuk, horoz.

Bundan tashqari, izohlar ham tushunarsiz. Masalan, **БА/ВА** so'zi "qo'y va echki kabi hayvonlarga murojaat qilish, chaqirish so'zi" (?) deb berilgan. Holbuki, O'zbek tilining izohli lug'atida "**БА** [a — чўзук] *мақл. с.* Qo'ylar ma'ragandagi tovushni ifodalaydi" degan to'g'ri izoh ham berilgan.

Yoki, yangi lug'at "**БААДАБ/ВЕАДАБ sf. Edepsiz**" deb noto'g'ri berilgan. Holbuki, o'zbek tilining izohli lug'atida "**БААДАБ ayn. БОАДАБ**", ya'ni "odobli" degan to'g'ri izoh bor edi.

Xuddi shunday chalkashishga "**БАБАҚ / ВАВАҚ**" so'zida ham yo'l qo'yilgan (q. **БАБАҚ / ВЕВЕҚ is/ zool. Bir çeşit tavuk, horoz**). Holbuki, o'zbek tilining izohli lug'atida "**БАБАҚ ив.** Xo'rozning bir xil yirik turi" deb yozib qo'yilgan. Albatta ushbu so'zning turk tilida ham muqobili bo'lishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan va sanab o'tilmagan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligining asosiy sababi shuki, lug'atni tayyorlash jarayonida tuzuvchi mutaxassislar yuqori malakali tilshunos olimlar, boshqacha aytganda ekspertlarning ilmiy xulosalari, ularning lug'at sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan qimmatli fikr-mylohazalari, maslahatlarini olmagan ko'rinadilar.

Tuzuvchilar keyingi nashrlarning lug'atdan foydalanuvchilar tomonidan berilajak taklif, fikr va mulohazalar asosida yaqin kelajakda qaytadan shakllantirishlarini ta'kidlaganlar.

XULOSA

Umuman, "O'zbekcha-turkcha lug'at"ning nashr etilishi o'zbek-turk lug'atchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi, desa bo'ladi. Uning asosiy vazifasi hozirgi o'zbek adabiy tilining so'z boyligini to'plash va uning turkcha muqobillarini berish, tavsiflash va barqarorlashtirish, ayni paytda nutq madaniyatining yuksalishiga xizmat qilishdan iborat edi. Ushbu vazifaning qay darajada bajarilganligini vaqt ko'rsatadi. Shu bilan birga, lug'atni yuzaki bo'lsa-da ko'zdan kechirish sirasida ko'rinib qolgan ayrim juz'iy kamchiliklar, uning nuqsonlardan xoli emasligi, unda munozarali, bahsli holatlar borligidan dalolat beradi va uzil-kesil hal etilmagan masalalarning aniqlanib, bartaraf etilishi vaqt bilan bog'liq masala ekanini ta'kidlash kerak bo'ladi. Yuzaga kelgan fikr-mulohazalar va amaliy takliflarni shakllantirib, lug'at mualliflariga tez orada bildirish maqsadga muvofiq. Chunki, lug'at jonli lisoniy hodisa hisoblanadi va uni muntazam to'ldirib,

boyitib borish, bunda mutaxassislarning fikr-mulohazalarini inobatga olib ish tutish tuzuvchilarning professional vazifalari doirasiga kiradi, deb o‘ylaymiz.

Yuqoridagi mulohazalar va lug‘at tuzuvchilar tomonidan ulkan ish amalga oshirilganini yana bir karra e’tirof etgan holda shunday bir lug‘atning dunyo yuzini ko‘rgani o‘zbek-turk lug‘atchiligi hamda leksikologiya va leksikografiyaning yutug‘i hamda uning ustida ilmiy tadqiqotlar boshlanishiga ham asos bo‘lib xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] – Bebaho xazina (“Turkiy adabiyot durdonalari” tilimizda) (A. Mannonov bilan hammualliflikda). Tarjimashunoslar forumi – 2022. Translation Forum – 2022 (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami). 1-kitob – Toshkent: TDSHU, 2022. Volume 2 | Special ISSUE 28ISSN 2181-1784SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7.- 447 b.

[2] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли: – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.

[3] – Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –M.: «Russkiy yazik», Multilingual. – İstanbul, 1995.

[4] – Büyük Türkçe-Rusça Sözlük.–M.: «Russkiy yazik», 1977, Multilingual. – İstanbul, 1994.

[5] – Özbek Türkçesi – Türkiye Türkçesi. Sözlük. Hikmet Koraş, Fatma Açık, Zamira Öztürk. – Ankara, “Nobel” Yayınevi. – 2023. – 1205 s.

[6] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: «Рус тили», 1981.

[7] – Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. 1.-2.Ciltler. – Ankara: 1998.